



O'QUVCHI -YOSHLAR ORASIDA LIDERLIK JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI.

Manzhitov Baxtiyor Tolibovich

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

[*Baxtiyorbuxoriy@gmail.com*](mailto:Baxtiyorbuxoriy@gmail.com)

+998973032668

Liderlik-maqсадlarga erishishda individumlar va odamlar guruhiga ishlash xissini uyg'otish uchun ta'sir qilish qobiliyatidir. Liderlik nazariyasi liderlikning qaysi xarakteristikalari ko'proq samarali va nima uchun shundayligini aytib berishga harakat qiladi. Olimlar samarali liderlikning asosiy omillarini anglashda 3 ta yondashuvni qullaydilar: shaxsiy fazilatlar nuqtai-nazaridan yondashuv; xatti-harakatlar yondashuvi; va vaziyatli yondoshuv.

Shaxsiy fazilatlar naqtai-nazaridan yondoshuv. Liderning shaxsiy nazariyasiga, shuningdek, buyuk insonlar nazariyasiga, asosan, eng yaxshi rahbarlar hamma uchun umumiy bo'lgan shaxsiy fazilatlarining to'plamiga ega bo'ladi. Agar ushbu fazilatlarini e'lon qilish imkoniyati bo'lganda, odamlar ularni o'zlarida tarbiya qilishni o'rganib, samarali rahbarlar bo'lishni o'rganishgan bular edilar. O'rganilgan xususiyatlarning ba'zilar intellekt (zakovat) va bilim darajasi, taassurot qoldiradigan tashqi kurinish, xatolik, sog'lom fikr, ijtimoiy va iqtisodiy ma'lumot, tashabbuskorlik va o'ta yuqori ishonuvchanlik darajasi yuqorililigi bilan farqlanadi.

40-yillarda olimlar shaxsiy fazilatlar va liderlikka nisbati to'g'risidagi yig'ilgan ma'lumotlarni o'rgana boshladilar. Stogdild liderlik borasida izlanishlar olib bordi. Xozirgi olimlar ham tan oladigan xulosaga kelgandi: odam bir qancha shaxsiy fazilatlar to'plami evaziga rahbar bo'la olmaydi.



Yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirishda va rivojlantirishda mamlakatimizda qo'yilgan talablarni inobatga olgan holda bayon etilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda liderlik jarayonini shakllantirish lozimligi aytib o'tilgan. Bolaning kichik maktab yoshidan boshlab liderlik qobiliyatlarining shakllantirish jaroyinida, jamoa bo'lib birlashish uni boshqara olish ko'nikmalarini shakllantirish haqida ma'lumotlar beramiz. Shuningdek bo'lajak liderlarga tavsiyalar beramiz.

1. O'zingizni kemanding kapitani sifatida tasavvur qiling. Kemanding taqdiri va barchani to'g'ri yo'nalishda olib ketish sizning qo'llarizda.
2. Qaror qabul qilishda donolikka amal qiling; eng yaxshisiga umid qiling, lekin eng yomoniga tayyor turing.
3. Agar qarorlaringiz uchun javobgarlik olishga tayyor bo'lsangiz ikkilansangiz va o'zingizdan shubha qilsangiz, ehtimol o'z o'rnizni tark etishingiz kerak. O'ziga ishonmagan lider ko'pincha zolim bo'lib qoladi.

Amerikalik tadqiqotchi olimlar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider- bu "superlider" hisoblanadi. Bu insonlar shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shulardan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka va mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu inson uchun shunday fursat yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu-superliderlikdir. Demak, samarali boshqaruv- aslida ijtimoiy ta'sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko'rinishidir. Shu ma'noda, liderlik – avval shaxsning o'ziga, so'ngra o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta'riflanadi. Atrof-muhit o'smirning liderlik qobiliyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynabgina qolmay aynan shu muhit o'smirni yetakchilik qobiliyatini mukammallashtirib borishida to'siqlar ham



yaratadi. Bundan tashqari, o‘smirda qanchalik ko‘p yetakchilik qobiliyatlari shakllantirilsa va tarbiya orqali singdirib borilsa ko‘zlangan maqsadga osongina erishish mumkin bo‘ladi.

“Liderni yuzaga chiqaradigan asosiy omil – uning ilmidir”-deb ta’kidlash bejiz emas. Negaki o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ma’lum bir darajadagi bilimga ega bo‘lish shaxsni o‘ziga ishonishi va yetakchi his qilishiga yordam beradi. Agar bilim yetarli bo‘lmasa ustunroq bo‘lgan inson liderlikni olib ketadi. Shunday ekan lider o‘z sohasining mutaxassisi bo‘lishi, o‘ziga berilishi mumkin bo‘lgan savollarning barchasiga aniq javoblari bo‘lishi darkor. Mustahkam bilim kishiga ishonch beradi. Liderdagi ishonch har qanday vaziyatlarda o‘zini oqlaydi. O‘ziga ishongan inson ortidan izidan izdoshlarini ergashtira oladi. Qayerda, kimlar orasida, qanday vaziyat bo‘lmasin liderlik qilishidan qat’iy nazar, o‘z ustida ishlash samaralidir.

Lesli Kassidi aytganidek “Maqsadlari sari har kuni kichik qadamlar ajoyib natijalarga olib keladi. Shunday ekan dars jarayonida liderlik xususiyatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bugungi rivojlanayotgan mamlakatimizda qo‘yilgan talablarni inobatga olgan holda bayon etdik. Aslida ham shunday bugungi rivojlanayotgan zamonda yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish o‘ziga ishonchini yuqori darajaga chiqarish uchun harakat etishimiz joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi. Chirchiq, 2020
2. Robin Sharma.Muvaffaqiyatning 200 siri. Toshkent, 2017.
3. Ziyonet.uz.
4. B.Ziyomhammadov “Pedagogik mahorat asoslari”,2019
5. G’oziev.E.G. Umumiy psixologiya.Toshkent.2002.1-kitib